TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT BO‘YICHA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI VA UNI JORIY ETISH YO‘LLARI

Xolmamatov Farhodjon Kubaevich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, DSc.

Mamurov Samadjon Igamnazarovich - O'zbekiston xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi dotsenti, PhD

imrconf.com

Bugungi kunda global moliya tizimida tijorat banklarining barqaror faoliyatini ta’minlashda risk-menejment tizimi alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Moliya bozorlarining globallashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi bank faoliyatida turli xil risklarning, jumladan kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklarning keskin kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, risklarni samarali boshqarish bank tizimining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

AQSh bank amaliyotida risk-menejmentning asosiy xususiyatlaridan biri — risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni minimallashtirishga qaratilgan integratsiyalashgan tizimning mavjudligidir. Shuningdek, stress-testlar, ssenariy tahlillari va ichki modellardan keng foydalanish orqali banklarning moliyaviy barqarorligi muntazam baholanib boriladi.

Mazkur tezisda AQShning eng yirik banki bo‘lgan JP Morgan bankining risklarni boshqarish misolida risk-menejment bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba tahlil qilinib, uning asosiy tamoyillari va joriy etish yo‘llari o‘rganiladi. Shu bilan birga, ushbu tajribani milliy bank amaliyotiga tatbiq etish orqali risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

JPMorgan Chase & Co. banki dunyoning aksariyat qismida o‘z faoliyatini olib boradigan va xizmatlar ko‘rsatadigan eng yirik xalqaro

banklardan biridir. Bankning faoliyati juda keng bo‘lganligi sababli, unda risklar darajasi va soni ham shunga mos bo‘ladi. Bu esa bankning risk siyosatini to‘g‘ri amalga oshirishni taqozo etadi.

Bankda risklarni samarali boshqarish va ular bo‘yicha siyosatni belgilashda Direktorlar kengashi qoshida Risklar boshqarish qo‘mitasi doimiy faoliyat olib boradi.

Bundan tashqari, Risklar qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida obro‘ va xulq-atvorga taalluqli risklar ustidan ham nazoratni amalga oshiradi.

Qo‘mitaga a’zolikda faqat rahbar bo‘lmagan direktorlardan, kamida uch kishidan iborat bo‘lishi kerak. Har bir a’zo, bank aksiyadorlarining oxirgi yillik yig‘ilishi vaqtida, Nyu-York fond birjasining korporativ boshqaruv bo‘yicha listing standartlarida belgilangan mustaqillik talablariga, shuningdek, Direktorlar kengashining Korporativ boshqaruv tamoyillarida bayon etilgan bank ichki mustaqillik standartlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Federal zaxira tizimi qoidalariga ko‘ra, Risklar bo‘yicha qo‘mita raisi albatta mustaqil direktor bo‘lishi kerak. Qo‘mita tarkibi har yili Korporativ boshqaruv va tayinlash qo‘mitasi tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi va Direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Direktorlar kengashi, shuningdek, Qo‘mita raisini ham tayinlaydi. Risklar bo‘yicha qo‘mitaning barcha a’zolari va raisi Direktorlar kengashining topshirig‘i asosida faoliyat yuritadi.

Direktorlar kengashi talabiga ko‘ra, Qo‘mita tarkibi uning nazorat vazifalarini samarali bajarish uchun zarur bilim va tajribaga ega shaxslardan iborat bo‘lishi lozim. Qo‘mita a’zolari amaldagi barcha me’yoriy va huquqiy talablarga muvofiq keluvchi tajriba va malakaga ega bo‘lishi zarur. Qo‘mita tarkibida kamida bitta a’zo yirik va murakkab moliyaviy kompaniyalarning risklarini aniqlash, baholash va boshqarish tajribasiga ega bo‘lishi shart.

Risklar qo‘mitasi o‘zi zarur deb hisoblagan darajada tez-tez, biroq har chorakda kamida bir marta yig‘iladi. Rais qo‘mitaning barcha majlislarida raislik qiladi va kun tartibini belgilaydi. Qo‘mita vaqti-vaqti bilan yopiq

imrconf.com

yig‘ilishlar o‘tkazadi. Bunday yig‘ilishlarda Risklar bo‘yicha direktor bilan, uning yoki qo‘mita a’zolarining fikricha muhokama qilinishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqiladi.

Risklar bo‘yicha qo‘mita qonun hujjatlarida, normativ hujjatlarda yoki bitimlarda nazarda tutilgan masalalarni ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi. Risklar bo‘yicha qo‘mita yoki uning raisi har yili kamida bir marta Direktorlar kengashining Mukofotlash va boshqaruvni rivojlantirish qo‘mitasi bilan uchrashuv o‘tkazadi. Uchrashuvda firma maqsadlari nuqtayi nazaridan risklar, ularni boshqarish va mukofotlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muhokama qilinadi. Bu jarayonda, xususan, risklar bo‘yicha mutaxassislarni rag‘batlantirish siyosati, xavfsizlik va ishonchlilik tamoyillari, shuningdek, haddan tashqari risklarni qo‘llab-quvvatlaydigan mukofotlash amaliyotiga yo‘l qo‘ymaslik masalalariga e’tibor qaratiladi.

Shu bilan birga qo‘mitaning tegishli majburiyat va javobgarliklari ham aniq belgilangan bo‘lib, u doimiy tarzda nazorat qilib boriladi va hisobotlarda aks ettiriladi. Mustaqil a’zolar ularning majburiyatlari yuzasidan o‘zlarining erkin xulosalarini taqdim etadilar.

A. Risk qo‘mitasi global risklarni boshqarish tizimi va firmaning risklarini nazorat qilishi kerak:

1. Birlamchi risklar bo‘yicha siyosatlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek, har yili bunday siyosatlarga kiritilgan har qanday muhim o‘zgartirishlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash.

2. Har yili bankning miqdoriy va sifatli risk appetitini ko‘rib chiqish va tasdiqlash. Belgilangan risk appetitiga rioya etilishi bo‘yicha hisobotlarni olish. Bank faoliyatining natijalari risk-appetitdan oshib ketganligi yoki oshib ketishi taxmin qilinayotganligi to‘g‘risida risklar bo‘yicha qo‘mita raisiga darhol xabar berilishi kerak.

3. Rahbariyat tomonidan aniqlangan muhim risklar to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqish.

imrconf.com

4. Faoliyat yo‘nalishlari bosh direktorlari va bosh investitsiya direktori bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazish.

B. Risk qo‘mitasi firma doirasida risklarni baholash va nazorat qilishga qaratilgan samarali nazorat tizimining mavjudligini baholashi lozim:

1. Rahbariyat talabiga ko‘ra zarur hollarda parametrlar, limitlar yoki chegaraviy qiymatlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash. Bank miqyosidagi qoidabuzarliklar to‘g‘risida risklar bo‘yicha qo‘mita raisiga darhol xabar berilishi kerak.

2. Rahbariyat bilan kelishilgan boshqa asosiy ko‘rsatkichlar va ular bo‘yicha erishilgan natijalarni ko‘rib chiqish.

3. Risklar va komplayens bo‘limi rahbariyatidan vaqti-vaqti bilan, zaruratga qarab, ichki audit hisobotlarida, rahbariyatning tashqi auditorlardan olgan xatlarida hamda tartibga soluvchi organlar tekshiruvlariga oid hisobotlarda ko‘rsatilgan muhim nazorat masalalari bo‘yicha, shuningdek, tegishli bo‘linma tomonidan aniqlangan boshqa nazorat masalalari va ularning bartaraf etilishi holati bo‘yicha axborot va taqdimotlar olish.

C. Risk qo‘mitasi kapital va likvidlikni tahlil qilishi va rejalashtirishi kerak:

1. Bankni tiklash rejasini va kapital qo‘yilmalarning yillik rejasini, agar u direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlanmagan bo‘lsa, mustaqil ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.

2. likvidlikni boshqarish masalalari yuzaga kelsa, moliyaviy direktor bu haqda darhol risklar bo‘yicha qo‘mita raisiga xabar beradi.

3. Likvidlilik tavakkalchiligini boshqarishga nisbatan yiliga kamida bir marta zaxiraviy moliyalashtirish rejasini va undagi muhim o‘zgarishlarni tasdiqlash.

4. Bir yilda kamida bir marta yuqori rahbariyat tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni olish va tekshirish, Firmaning likvidlik riskining belgilangan yo‘l qo‘yiladigan darajalariga muvofiq faoliyat ko‘rsatayotganligini aniqlash

imrconf.com

va uni yarim yilda bir marta ko‘rib chiqish uchun direktorlar kengashiga taqdim etish.

JPMorgan Chase & Co. bankida har bir bo‘linma alohida nazoratga olinadi va ularning faoliyatiga xolisona baho berib boriladi. Shuningdek, yuqori rahbariyat ustidan nazorat o‘rnatilgan bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi.:

1. Firmaning risklar bo‘yicha direktori bosh direktorga va risklar bo‘yicha qo‘mitaga hisobot beradi.

2. Risklar bo‘yicha qo‘mita bosh direktor bilan maslahatlashgan holda risklar bo‘yicha direktorni tayinlash, baholash, almashtirish, lavozimini o‘zgartirish yoki ishdan bo‘shatishni tasdiqlaydi. Shuningdek, Risk qo‘mitasi yoki uning raisi bosh direktor hamda Mukofotlash va boshqaruv taraqqiyoti qo‘mitasi (yoki uning raisi) bilan maslahatlashadi va mukofot miqdori, moliyaviy bo‘lmagan faoliyat maqsadlari hamda direktorning risklar bo‘yicha izchilligini rejalashtirishni tasdiqlaydi. Risklar bo‘yicha qo‘mita, shuningdek, risklar bo‘yicha direktor faoliyati natijalarini ko‘rib chiqadi hamda uning bevosita bo‘ysunuvchi xodimlari bo‘yicha uzluksizlik rejasini tasdiqlaydi.

3. Risklar bo‘yicha qo‘mita har yili risklar bo‘yicha direktor tomonidan taklif etilgan ustuvorliklar, byudjet va kadrlar rejalarini ko‘rib chiqadi.

4. Risklar bo‘yicha direktor, faoliyatning har bir yo‘nalishi bo‘yicha risklar bo‘yicha direktorlar, firmaning me’yoriy talablarga rioya qilish bo‘yicha direktori va boshqa bevosita bo‘ysunuvchi risklar bo‘yicha direktorlar (vaziyatga qarab) har bir muntazam yig‘ilishda risklar bo‘yicha qo‘mita bilan o‘zlarining asosli fikriga ko‘ra firma yoki faoliyat yo‘nalishi uchun muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday muammolarni muhokama qiladilar. Bunday mansabdor shaxslar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish uchun amalga oshirilgan yoki rejalashtirilgan har qanday harakatlarni tavsiflashlari kerak.

imrconf.com

imrconf.com

5. Agar risklar bo‘yicha qo‘mita majlislari oralig‘ida risklar bo‘yicha direktorning fikriga ko‘ra, firma faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan risklarni boshqarish masalalari yuzaga kelsa, risklar bo‘yicha direktor bu haqda darhol risklar bo‘yicha qo‘mita raisiga xabar beradi.

6. Shuningdek, qonunchilik, me’yoriy hujjatlar yoki tegishli kelishuvlar talab qilgan hollarda, Audit qo‘mitasi bilan o‘zaro manfaatli masalalar bo‘yicha qo‘shma uchrashuvlar o‘tkazilishi mumkin. Risklar bo‘yicha direktor va Komplayens bo‘yicha direktor risklar va komplayens bilan bog‘liq har qanday masala yuzasidan Risklar qo‘mitasi bilan bevosita muloqot qilish huquqiga ega.

Milliy bankning sho‘’ba korxonalari nomidan harakat qilish.

7. Risk qo‘mitasi JP Morgan Chase & Co. majburiyatlarni bajarishda Risk qo‘mitasi banklarning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashga intilishi, shuningdek, ularning manfaatlarini bosh kompaniya manfaatlariga bo‘ysundirmasligi lozim. Shu sababli, qo‘mita banklar uchun muhim bo‘lgan risk masalalari ustidan mustaqil nazoratni ta’minlashi shart.

Risk qo‘mitasi har yili, kamida bir marta, qo‘mita nizomini qayta ko‘rib chiqadi va taklif etilayotgan har qanday o‘zgartirishlarni Korporativ boshqaruv va tayinlash qo‘mitasi hamda Direktorlar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etadi. Risklar bo‘yicha qo‘mita har yili o‘z faoliyatini baholaydi va baholash natijalari to‘g‘risida Direktorlar Kengashiga hisobot beradi. Ushbu baholash qo‘mita faoliyatining amaldagi ustav talablariga muvofiqligini tahlil qilishni o‘z ichiga olishi kerak.

1-jadval.

JP Morgan Chase & Co. bankining kredit riski ko‘rsatkichlari dinamikasi[1], mln AQSH dollari

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025

[1] https://www.wsj.com/market-data/quotes/JPM/financials/annual/balance-sheet ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Aktivlar	3 743 567	3 665 743	3 883 155	4 155 000	4 487 000
Kreditlar	1 052 640	1 111 951	1 297 302	1 425 000	1 570 000
Kreditlarning aktiv-lardagi ulushi, foizda	28,12	30,33	33,41	34,29	34,99
Kreditlar bo‘yicha zaxira	16 386	19 726	22 420	24 950	26 700
Zaxiraning kreditlarga nisbati, foizda	1,56	1,77	1,73	1,75	1,70

Keltirilgan ma’lumotlar 2021–2025 yillar davomida bankning aktivlari, kredit portfeli hamda kreditlar bo‘yicha shakllantirilgan zaxiralar dinamikasini aks ettiradi. Umumiy tendensiyaga ko‘ra, bankning jami aktivlari 2021 yildagi 3 743 567 dan 2025 yilda 4 487 000 ga qadar barqaror o‘sishni ko‘rsatgan. Bu holat bank faoliyati hajmining kengayishi va moliyaviy resurslar bazasining mustahkamlanishini anglatadi.


Kreditlar hajmi ham tahlil qilinayotgan davrda izchil o‘sib borgan bo‘lib, 1 052 640 dan 1 570 000 ga yetgan. Bu esa bankning kreditlash faoliyati faollashganini va iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi ishtirokining kuchayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kreditlarning aktivlardagi ulushi 28,12% dan 34,99% gacha oshgan. Bu tendensiya bank aktivlar strukturasida kredit portfelining ulushi ortib borayotganini va bank daromad manbalari kredit operatsiyalariga yanada ko‘proq tayanayotganini anglatadi.

Kreditlar bo‘yicha shakllantirilgan zaxiralar ham muttasil o‘sish tendensiyasini ko‘rsatgan bo‘lib, 16 386 dan 26 700 gacha oshgan. Bu kredit portfeli kengayishi bilan birga risklarni qoplash uchun zaxiralash hajmi ham ortganini bildiradi. Biroq zaxiraning kreditlarga nisbati 1,56% dan 1,70% gacha nisbatan barqaror darajada saqlangan, faqat 2022 yilda biroz o‘sish (1,77%) kuzatilgan, keyingi yillarda esa yengil pasayish tendensiyasi mavjud.

imrconf.com

imrconf.com

Bankda likvidlilik riski past hisoblanadi, chunki joriy likvidlilik koeffitsiyenti deyarli 1 koeffitsiyentga yaqin va bankning boshqa likvid aktivlari miqdori va sifati yuqori hisoblanadi. Qolaversa, bank transmilliy bank bo‘lganligi sababli qisqa muddatda resurslar jalb qilish va ularni samarali joylashtirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun mazkur holatni normal darajada deb baholash mumkin.



1-rasm. JP Morgan Chase & Co. bankining marja ko‘rsatkichlari[2], foizda

JP Morgan Chase & Co. bankining sof foiz marjasi 2020-2025-yillarda 92,33 foizdan 63,66 foizga qadar pasaygan. Bu esa salbiy holat bo‘lib, banklarda quyidagi risklarga ta’sir qilishi mumkin:

kredit riski – kreditlarning qaytmasligi esa foizli daromadlarni kamaytiradi;

likvidlilik riski – jalb etilgan mablag‘larning narxi oshadi, likvidlilikni ta’minlash uchun qimmat resurslarni murojaat qilishga majbur bo‘ladi.

Banklarda operatsion foyda marjasi risklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ko‘rsatkich banklarning foizli faoliyati

[2] https://www.wsj.com/market-data/quotes/JPM/financials/annual/balance-sheet ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

(kreditlar, lizing, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar) va operatsion xarajatlar (ish haqi, ijara, saqlash xarajatlari, sug‘urta va boshqalar)ga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi hamda kredit riski, foiz riski va operatsion risklarni holatini ifodalaydi. Agar operatsion marja ko‘rsatkichi yuqori bo‘lsa, bank xarajatlari samarali boshqarilayotganligi, foizli daromad yetarli darajada ekanligini bildiradi. Aksincha bo‘lganda esa, xarajatlar yuqori, kreditlardan daromadlar past va ularga zaxiralar ortganligini ifodalaydi.

Operatsion foyda marjasi esa so‘nggi besh yilda deyarli o‘zgarmagan, faqat 2022-yilda keskin oshib ketganligini kuzatish mumkin. 2020-yilda 27,57 foiz bo‘lsa, 2025-yilga kelib 26,92 foizga yetgan.

Sof foyda marjasi bankning strategik boshqaruvi va risk nazorati sifatini baholovchi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, uning barqarorlik darajasi kredit riskini samarali boshqarishga, foiz riskidan ko‘riladigan zararlarni kamaytirishga hamda valyutadagi nomutanosiblikni pasaytirishda asosiy manba hisoblanadi. Shuningdek, bu ko‘rsatkich soliq bilan ham bog‘liq bo‘lib, soliq imtiyozlarining mavjudligi bank foydasiga ta’sirini aks ettiradi.

Tahlil etilayotgan bankda sof foyda marjasi 2020-yilda 21,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 20,39 foizni tashkil etgan. Sof foiz marjasi keskin pasaygan paytda sof foyda marjasini bir maromda ushlab turilishi bank uchun ijobiy holat va samarali risk nazorati va boshqaruvi mavjudligidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bankning aktivlari va kredit portfeli barqaror o‘sish dinamikasiga ega bo‘lib, kreditlash faoliyati iqtisodiy jihatdan faollashgan. Kreditlarning aktivlardagi ulushining ortishi bankning daromadliligi oshishiga xizmat qilsa-da, bu bir vaqtning o‘zida kredit risklariga bog‘liqlik darajasining ham o‘sib borayotganini anglatadi.

Kreditlar bo‘yicha zaxiralar hajmining ortishi bankning risklarni boshqarish siyosati mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Biroq zaxiraning kreditlarga

imrconf.com

nisbatan barqaror, lekin nisbatan past darajada saqlanishi kredit portfeli sifatini doimiy nazorat qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, bank kredit siyosati faol va kengayib borayotgan bo‘lib, kelgusida kredit risklarini minimallashtirish maqsadida zaxiralash siyosatini yanada takomillashtirish hamda risk-menejment instrumentlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

imrconf.com